


2019 yilning yanvar-avgust oylarida Navoiy viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

RAQAMLAR	
27193,8 mlrd.so'm	101,4 %
sanoat ishlab chiqarish hajmi	sanoat ishlab chiqarish indeksi
2013,4 mlrd.so'm	103,3 %
iste'mol tovarlari ishlab chiqarish	o'sish sur'a'ti
7,4 %	12,5 %
iste'mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi	sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2019 yilning yanvar-avgust oylarida viloyatimiz korxonalari tomonidan 27193,8 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 101,4 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 105,6 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati - 99,6 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash - 112,7% ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish – 94,7 % ga o'sish hisoblanadi.

2019 yilning yanvar-avgust oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2019 yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3081,7 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajming 11,3 % ni tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2019 yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 22437,8 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 82,5 % ini tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi - 0,4 % ni, o'rta-yuqori texnologiyali - 6,5 %, o'rta-quyi texnologiyali - 84,6 % va quyi texnologiyali 8,5 % tashkil etdi.

Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi

2019 yil yanvar-avgust



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sohasining ulushi - 5,7 %, metallurgiya sanoatining ulushi - 75,3 %, oziq-ovqat, ichimlik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,7 %, kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 5,6 %, to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 4,5 % ni tashkil

***Ishlab chiqaradigan sanoatda
yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish***

<i>2018 yil yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan</i>	<i>Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari</i>	<i>2019 yil yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan</i>	<i>O'sish sur'ati, %</i>
--	---	--	-------------------------------------

Portlandsement, ming tonna

2456,0



2395,0

97,5

So'ndirilmagan va so'ndirilgan ohak , tonna

25583,5



40358,0

157,8

Ammoniy nitrat, ming tonna

143,68



163,72

113,9

<i>2018 yil yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan</i>	<i>Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari</i>	<i>2019 yil yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan</i>	<i>O'sish sur'ati, %</i>
---	--	---	--------------------------


Temir beton, tonna

34596,0



32149,6

92,9



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1625,8 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,0 % ni) tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 48,5 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ni) tashkil etdi.



***Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish
va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish***

<i>2018 yil yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan</i>	<i>Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari</i>	<i>2019 yil yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan</i>	<i>O'sish sur'ati, %</i>
--	---	--	-------------------------------------

Tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom-ashyo, tonna

37469,0



30193,0

80,6

***Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish
bo'yicha xizmatlar, mln. so'm***


8887,817



12831,051

144,4

2019-yil yanvar-avgust oylarida shahar va tumanlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish indeksi 2018-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan %




Shahar va tumanlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil chora-tadbirlar natijasida, Qiziltepa (2018-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan 117,5 %), Karmana (111,9 %), Nurota (110,0 %), Tomdi (107,5 %), Konimex (106,7 %) tumanlarida va Navoiy shahrida (102,3 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 2013,4 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 103,3 % ga o'sishni ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 7,4 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-avgust oylarida shahar va tumanlar bo'yicha istemol mollarining o'sish sur'atlari 2018-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, %




Shu bilan birga Karmana (2018-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan 111,2 %), Tomdi (106,6 %), Navbahor (105,7 %), Nurota (104,8 %), Konimex (102,9 %) va Uchquduq (102,5 %) tumanlarida iste'mol tovarlarini ishlab chiqarilishi sezilarli darajada oshdi.

**Yanvar-avgust oylarida iste'mol tovarlari ishlab
chiqarish hajmining tarkibi, %**



2019 yilning yanvar-avgust oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi




Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 540,2 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 2,0 % ni tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %

2018 yil yanvar-avgust




2019 yil yanvar-avgust



Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar

Viloyatning boshqa korxonalari

***Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining
sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %***




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 3387,9 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Hisobot davrida kichik korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 12,5 % ni tashkil etdi.


**Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznes
ulushi**



Kichik biznes ishlab chiqqargan sanoat mahsulotlar hajmi, mlrd.so'm



2019 yilning yanvar-avgust oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Navbaxor tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Nurota (100,0 %), Tomdi (100,0 %), Uchquduq (99,6 %), Xatirchi (99,0 %), Qiziltepa (91,5 %) tumanlarida va Zarafshon shahrida (85,7 %), kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichkina ulush Navoiy shahrida (1,8 %), Konimex (26,4 %), Karmana (48,2 %) tumanlarida kuzatildi.

Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatimizda 2508 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 648 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 25,8%) Navoiy shahriga, 404 tasi (16,1%) Karmana tumaniga, 302 tasi (12,0 %) Xatirchi tumaniga to'gri kelmoqda.


Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik (2019 yil 1 sentyabr holatiga)



2019 yil yanvar-avgust oylarida viloyatimizda 940 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etildi, ularning 20,4 foizi Xatirchi tumaniga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni, birlik

(2019 yil yanvar-avgust)



Navoiy viloyati statistika boshqarmasining
Sanoat statistikasi bo'limi
telefoni: (436) 223-33-29